

Bugungi kunga kelib, respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishning mustahkam huquqiy bazasi va aniq tizimi shakllangan.

Ushbu illatga qarshi kurashishni Jahon talablari asosida tashkil etish maqsadida mamlakatimizda 2008- yilda BMTning 2003- yil 13- oktabrdagi “Korrupsiyaga qarshi” Konvensiyasi ratifikatsiya qilindi. Shuningdek, “BMTning “Korrupsiyaga qarshi” konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

Bundan tashqari, 2010- yilning mart oyida O‘zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga (2003- yil 10- sentabr) qo‘shildi.

2017- yil 3- yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni qabul qilindi.

Davlat dasturi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasining besh ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadbirlarni o‘z ichiga olgan:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkiliy choralar, tadqiqotlar o‘tkazish, xalqaro hamkorlik.

Qaror bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi shaxsiy tarkibi tasdiqlangan bo‘lib, unga Bosh prokuror boshchilik qiladigan bo‘ldi.

Respublika komissiyasi to‘g‘risidagi nizomda uning asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek faoliyatini tashkil etish o‘z aksini topdi.

Komissiyaning ishchi organi funksiyasini Bosh prokuratura bajaradi, u quyidagilarni amalga oshiradi:

- komissiya faoliyatini moddiy-texnika jihatidan ta‘minlash;
- komissiya ish rejasini ishlab chiqish, uning ijrosini nazorat qilish, shuningdek komissiyaning kundalik faoliyatini tasdiqlangan rejaga muvofiq tashkil etish;
- vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar

bilan birgalikda komissiyaning qabul qilingan qarorlari ijrosini nazorat va monitoring qilish, komissiya raisiga tegishli axborot va takliflarni kiritish;

- kelib tushayotgan xat va hujjatlarni ko‘rib chiqish va komissiya vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan qarorlar tayyorlash;

- Prezident va Vazirlar Mahkamasiga korrupsiyaga qarshi kurashishga imkon beradigan chora-tadbirlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlanishini va kiritilishini tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining Ishonch
telefonlari

71 202-81-80, 202-81-81.

Samarqand viloyati statistika
boshqarmasining Ishonch telefonlari:
66 235-58-95

Samarqand viloyati statistika boshqarmasida
har oyda tadbirkorlar uchun "Davra suhbatlari"
tashkil etilishini ma'lum qilamiz.

"Korrupsiyaga to'qnashdingmi
qo'ng'iroq qil"



"Korrupsiya barqaror rivojlanish uchun
to'siq"



Siz korrupsiyani to'xtata olasiz!



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

KORRUPSIYAGA QARSHI
KURASHISHGA QARATILGAN
QONUNCHILIK



Samarqand – 2023